

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXOLISINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH  
YO'LLARINI STATISTIK TADQIQ QILISH

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti  
Iqtisodiy statistika kafedrasi katta o'qituvchisi  
**Razikova Gulmira Sharifovna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida aholini ish bilan band qilish masalasi statistik ma'lumotlar asosida chuqur tahlil qilingan. Mehnat migratsiyasi, ishsizlik darajasi, yoshlar va ayollar bandligi, hududiy tafovutlar hamda iqtisodiy sektorlardagi ish o'rinlari taqsimoti kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, bandlikni oshirishga qaratilgan davlat siyosati, islohotlar, mikro kredit va subsidiyalar, kasb-hunar ta'limi, xususiy sektor ishtiroki va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan. Muammolarga qarshi yechimlar sifatida yangi ish o'rinlarini yaratish, kasbiy moslashtirish, ayollar va yoshlarni ish bilan ta'minlash choralarini kuchaytirish taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, bandlik, ishsizlik, mehnat bozori, yoshlar bandligi, ayollar bandligi, mikro kredit, mehnat migratsiyasi, kasb-hunar ta'limi, iqtisodiy faol aholi, ish o'rinlari, statistika, ijtimoiy siyosat.

**Абстрактный.** В статье дается глубокий анализ проблемы занятости населения в Республике Узбекистан на основе статистических данных. Особое внимание уделяется таким вопросам, как трудовая миграция, уровень безработицы, занятость молодежи и женщин, региональные различия и распределение рабочих мест по секторам экономики. В нем также анализируются государственная политика, реформы, микрокредитование и субсидии, профессиональное образование, участие частного сектора и механизмы социальной поддержки, направленные на повышение занятости. Решения проблем включают создание новых рабочих мест, профессиональную адаптацию и усиление мер по обеспечению занятости женщин и молодежи.

**Ключевые слова:** Узбекистан, занятость, безработица, рынок труда, занятость молодежи, занятость женщин, микрокредитование, трудовая миграция, профессиональное образование, экономически активное население, рабочие места, статистика, социальная политика.

**Abstract.** This article provides an in-depth analysis of the issue of employment in the Republic of Uzbekistan based on statistical data. Attention is paid to issues such as labor migration, unemployment rate, youth and women's employment, regional disparities, and the distribution of jobs in economic sectors. State policies aimed at increasing employment, reforms, microcredit and subsidies, vocational education, private sector participation, and social support mechanisms are also analyzed. The solutions to the problems are proposed to create new jobs, professional adaptation, and strengthen measures to provide employment to women and youth.

**Keywords:** Uzbekistan, employment, unemployment, labor market, youth employment, women's employment, microcredit, labor migration, vocational education, economically active population, jobs, statistics, social policy.

**KIRISH**

XXI asrda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi ularning mehnat bozori holati va aholining ish bilan bandligi bilan bevosita bog'liqdir. Aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasi

nafaqat ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki fuqarolarning hayot sifati va farovonligining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng aholi bandligini ta'minlash, mehnat bozorini rivojlantirish va ishsizlik darajasini kamaytirish borasida qator strategik islohotlarni amalga oshirmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan Bandlik dasturlari, mehnat migratsiyasini tartibga solish choralari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimlari va kasb-hunar ta'limi islohoti ushbu yo'nalishdagi muhim qadamlar bo'ldi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Aholini ish bilan band qilish masalasi O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu sohada qaror va qonunlar ishlab chiqilgan qolaversa, bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va davlat dasturlaridan "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonun, Har yillik "Ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturi", hamda "Ish bilan bandlik bo'yicha statistik to'plamlar" (2020–2024), "Hududlar bo'yicha bandlik darajasi", "Yoshlar bandligi bo'yicha tahliliy hisobotlar", 2023, "Hududlar kesimida mehnat bozori muammolari", 2022. Ilmiy maqolalar va monografiyalardan Ibragimov, B.T. "Mehnat bozori va bandlik masalalari", 2021, Axmedov, M.S. "Bandlik va ishsizlikning iqtisodiy o'ziga xosliklari", 2020, Rasulov, A.X. "Demografik o'sish va ish o'rinlari muvozanati" nomli ishlar chuqur tahlil va empirik dalillarga asoslanib, strategik takliflar beradi.

#### **TAHLIL VA NATIJALAR.**

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan hodisaga aylangan. Ko'plab mamlakatlarda mehnat migratsiyasi dolzarb muammo sifatida ko'rilmogda, chunki nafaqat yuqori malakali kadrlar va mehnatga layoqatli aholi mamlakatni tark etmogda, balki bu holat tashqi omillardan mamlakat xavfsizligini pasaytiradi. O'zbekistonning demografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi strategik maqsad – aholining bandligi tuzilmasini samarali shakllantirish ekanligini inobatga olgan holda, eng avvalo, aholi bandligini oshirish va mamlakatdagi migratsion harakatlar ko'lamini kamaytirishga qaratilgan tegishli choralarni amalga oshirish lozim.

So'nggi yillarda O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va mehnat bozorini rivojlantirish borasida qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Har yili tasdiqlanadigan bandlik dasturlari orqali doimiy va kvotalangan ish o'rinlariga aholini joylashtirish mexanizmi takomillashtirilmoqda. O'zini o'zi band qilishning samarali shakllari (kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik) rivojlantirilmoqda. Aholining, ayniqsa, ijtimoiy zaif qatlamlari – xotin-qizlar, yoshlar, kam ta'minlanganlar uchun qulay mehnat shart-sharoitlari yaratilmoqda.

Budjetdan tashqari Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi tashkil etildi, 2018 yilda 150 mlrd so'm, keyingi yillarda 300 mlrd so'mgacha mablag' ajratilishi belgilangan. Hududiy jamg'armalar tashkil etilib, ular orqali tijorat banklari bilan hamkorlikda mikrokreditlar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi. Mikrokreditlar asosan qishloq joylarda ish o'rinlari yaratishga qaratilgan: issiqxona, chorvachilik, kasanachilik, xizmat ko'rsatish sohalari kabi faoliyatlar qo'llab-quvvatlanmoqda.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikka soliq imtiyozlari berildi. Mehnatga layoqatli shaxslarni mikrofirmalar va kichik biznesga jalb qilish orqali faol bandlik siyosati amalga oshirilmoqda. Ishsizlarga yakka tartibda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun boshlang'ich subsidiyalar ajratilishi belgilandi. Shu bilan birga, hududlardagi mehnat bozorida quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

- Ish o'rinlari yetarlicha bo'lmasligi oqibatida mehnat bozorida keskinlik yuzaga kelmoqda.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-5

- Aholining ishga joylashishida kredit va maslahat-axborot xizmatlari yetarli darajada tashkil etilmagan.

- Ishlab chiqarish kadrlari iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqib emas, balki umumiy yondashuv asosida tayyorlanmoqda – mutaxassislik bo'yicha nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda.

- Tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalar hanuz to'liq hal etilmagan.

O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash sohasidagi islohotlar tizimli yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning samaradorligi quyidagi omillar bilan bog'liq:

Hududiy jihatdan differensiyalangan yondashuvni kuchaytirish kerak (qishloq va shahar farqlari inobatga olinishi lozim). Kasb-hunar ta'limi tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish zarur. Mikrokreditlar va subsidiyalar ajratish jarayonlari shaffof va monitoringli tashkil etilishi kerak. Aholida ishbilarmonlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish – asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Hududiy jamg'armalar mablag'larini samarali va maqsadli sarflash mexanizmlari yanada takomillashtirilishi kerak.

Ishsizlikni kamaytirish uchun davlat va xususiy sheriklik asosida yangi ish o'rinlari tashkil qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ishsizlarga ijtimoiy yordam ijtimoiy-profilaktik hududiy ishlar shaklida ko'rsatilishi mumkin. Bandlik xizmatlarida ular bilan maxsus metodik ishlar olib boriladi. Bu orqali fuqarolar individual maslahat olish orqali qo'llab-quvvatlanishlari mumkin. Agar ishsiz shaxsda depressiv holat rivojlansa, avvalo u bilan terapevtik suhbat o'tkaziladi. Agar bu yordam bermasa, intensiv psixologik tuzatish ishlari olib boriladi. Ishsiz depressiyadan chiqqach, u bilan qaysi ishga rozi ekani, qanday mehnatga layoqati borligi muhokama qilinadi. Zarur bo'lsa, ishsiz kasbiy yo'naltirishga yuboriladi. Diagnostika yakunlangach, uning natijalariga ko'ra ish qidirish jarayoni boshlanadi

O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunida aytilishicha, murojaat etgan shaxsning kasbiy tayyorgarligiga, ish tajribasiga va mehnat stajiga, yoshiga, sog'lig'ining holatiga muvofiq maqbul keladigan ishni taklif etish (mavjud bo'lgan taqdirda), shuningdek O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolarni uyushgan holda ishga qabul qilish doirasida maqbul keladigan ishni izlash[1]lari belgilab qo'yilgan. Har yili mehnat bozoriga ishga layoqatli yoshga yetgan ko'plab yoshlar kirib kelmoqda. Uzoq davom etayotgan iqtisodiy sharoitida iqtisodiyotda ish izlayotganlarning barchasini ish bilan ta'minlaydigan yetarli miqdorda ish o'rinlari yaratilmoqda. Natijada, bo'sh mehnat kuchi taklifi unga bo'lgan ehtiyojdan deyarli 30 foizga qondirilmogda.

Bunday holat, o'z navbatida, O'zbekistondagi demografik vaziyatga ham bog'liq: aholining tug'ilish darajasi yuqori, chunki respublika aholisi asosan yoshlardan iborat. Bandlikka ko'maklashish markazlari ishsiz fuqaroga og'ir hayotiy vaziyat va inqirozdan chiqishda yordam berishmogda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida aholining umumiy soni barqaror o'sib bormogda. 2020 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrda aholi soni 34,2 milliondan 38,8 milliongacha ko'paygan. Shu bilan birga, iqtisodiy faol aholi soni ham mos ravishda 18,9 milliondan 21,6 million kishigacha o'sdi. Bu tendensiya aholining mehnat resurslari sifatidagi roli ortib borayotganini ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda ushbu ko'rsatkichlar yillik kesimda keltirilgan[2]

1-jadval.

#### Aholi sonining o'sishi va ishchi kuchining dinamikasi

Yil	Aholi soni (mln)	Iqtisodiy faol aholi (mln)	Band aholi (%)
2020	34,2	18,9	83,7
2021	35,3	19,4	84,2

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-5

2022	36,5	20,1	85,1
2023	37,7	21,0	85,8
2024	38,8	21,6	86,2

Ma'lumotlarga ko'ra, bandlik darajasi ham yildan-yilga oshib bormoqda va 2024 yilda 86,2 foizga yetgan. Bu davlat tomonidan mehnat bozorini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining ish bilan bandligini ta'minlash borasidagi islohotlar samaradorligidan dalolat beradi. Shunga qaramasdan, mehnat bozorida ayrim guruhlar – ayniqsa, yoshlar va ayollar orasida – bandlik darajasida muayyan muammolar mavjudligicha qolmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining sektoral tarkibi mehnat bozorining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilda band aholi quyidagi sohalarda faoliyat yuritgan:




Diagramma orqali 2023 yildagi band aholining iqtisodiy faoliyat tarmoqlari bo'yicha taqsimoti aniq ko'rsatilgan. Eng katta ulush — xizmatlar sohasiga tegishli (45%), undan keyin sanoat (27%) va qishloq xo'jaligi (25%) sohalari. "Boshqa" sohalarning hissasi esa atigi 3% ni tashkil qilmoqda.

Xizmatlar sohasi bandlik bo'yicha yetakchilikni qo'lga kiritgan bo'lib, bu iqtisodiyotning servis yo'nalishida kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sanoat va qishloq xo'jaligi sektorlarida ham muayyan o'sish kuzatilmoqda.

Ayniqsa, sanoatdagi modernizatsiya jarayonlari va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Biroq qishloq xo'jaligida ishchi kuchining yuqori ulushi ko'pincha yashirin ishsizlik va mehnat samaradorligining pastligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli, bu sohalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali mehnat unumdorligini oshirish zarur.

Yoshlar (16–30 yosh) orasida ishsizlik darajasi umumiy ko'rsatkichdan ancha yuqori. 2023 yilda yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi 14,2% ni tashkil qilgan, bu esa umumiy ishsizlik darajasi – 8,4% ga nisbatan deyarli ikki baravar yuqori ko'rsatkichdir. Bu holat quyidagi omillar bilan bog'liq[3]:

- Ta'lim muassasalaridan chiqqan yoshlarning bozor talablariga mos kelmasligi.
- Ish tajribasining yetishmasligi.
- Kasbiy yo'naltirish va rejalashtirish tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi.
- Yoshlar orasida tashqi mehnat migratsiyasiga bo'lgan qiziqishning yuqoriligi.

Yoshlar bandligini ta'minlash davlatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, kasb-hunarga o'qitish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar uchun maxsus ish dasturlarini ishlab chiqish orqali yechim topilishi mumkin.

Qolaversa, 2023 yil yakunlariga ko'ra, ayollar orasidagi bandlik darajasi 61,5% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich erkaklar bilan solishtirilganda pastroq bo'lib, ayollarni mehnat bozorida faol ishtirok etishiga to'sqinlik qilayotgan omillar mavjud:

- An'anaviy ijtimoiy rol va majburiyatlar (uy-ro'zg'or, farzand tarbiyasi).
- Ishga joylashishda diskriminatsiya holatlari.
- Raqobatbardosh kasblar bo'yicha yetarli malaka va tajribaning yetishmasligi.

Ayollar bandligini oshirish uchun quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiq:

- Ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-5

- Onlayn va sirtqi mehnat shakllarini kengaytirish.
- Bolalar bog'chalari va ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish.

Shu bilan birga, yoshlar va ayollar bandligidagi muammolar, hududlar o'rtasidagi tafovutlar, kasb-hunar tayyorlovidagi nomuvofiqlik va tashqi migratsiya oqimi mavjudligini saqlab qolmoqda[4]. Bu esa aholining to'liq bandligini ta'minlash uchun tizimli va kompleks yondashuvni, hududiy hamda ijtimoiy jihatdan mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Kelgusida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

- Kasb-hunar ta'limini mehnat bozori talablariga moslashtirish.
- Mikrokreditlar va subsidiyalar taqsimotini shaffof va monitoringli amalga oshirish.
- Yoshlar va ayollar uchun maxsus bandlik dasturlarini kengaytirish.
- Hududiy differensiyatsiyalashgan yondashuv asosida yangi ish o'rinlarini yaratish.
- Tadbirkorlik madaniyatini ommalashtirish va qo'llab-quvvatlash[5].

**XULOSA.** Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda aholi bandligini ta'minlash yo'lida muhim yutuqlarga erishilgan. Aholi sonining o'sishi bilan birga iqtisodiy faol aholining va bandlik darajasining ortib borayotgani davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar samarasidir. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish, sanoat va oilaviy tadbirkorlik sohalarining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Yuqorida aytilgan takliflar orqali, davlat siyosatining uzluksizligi, fuqarolarning faolligi va institutlararo hamkorlik orqali O'zbekiston Respublikasida aholining ish bilan bandligini oshirish va mehnat bozorini modernizatsiya qilish yo'lida barqaror taraqqiyotga erishish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 20.10.2020 yildagi O'RQ-642-son qonuni
2. Davlat statistika qo'mitasi rasmiy hisobotlari, 2020–2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi, "Bandlik dasturlari" ma'lumotnomasi, 2023.
4. International Labour Organization (ILO). "World Employment and Social Outlook 2024".
5. Karimov, S. (2021). *Mehnat bozori va bandlik siyosati*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
6. Nazarov, B. (2023). "O'zbekiston mehnat bozorida yoshlar ishtiroki", *Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 4(2), 33–42.